O’zbekistonda birinchi marta tashkil etilayotgan “Yashil texnologiyalar vodiysi”ga bag’ishlangan matbuot anjumani

Bugun, 29-iyun kuni Milliy matbuot markazida Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti tomonidan Innovatsion rivojlanish vazirligi, “O’zkimyosanoat” AJ mutasaddidlari ishtirokida “Yashil texnologiyalar vodiysi” birinchi ilmiy-texnologik konsortsiumi: maqsad, vazifalar va istiqbollar” matbuot anjumani o’tkazildi.

markaz16uz
MARKAZ16.UZ
UZREPO
ws
@uzre
markaz16
Z16.UZ
UZR
@uzre
@mar
Z16.U
hydrolife
hydrolife

Unda “Yashil texnologiyalar vodiysi”ning maqsadi, vazifalari, undan kutilayotgan natijalar haqida ma’lumot berildi. Bu loyiha O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, “O’zkimyosanoat” AJ hamda Drezden texnika universiteti (Germaniya) hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Konsortsiumning maqsadi vodorod energetikasi texnologiyalari, karbon (uglerod) tolasini ishlab chiqarish texnologiyasi, texnogen chiqindilardan qora va rangli metallar ajratib olish texnologiyalari, xususiyatlari oldindan belgilangan materiallar yaratish, yangi tur yengil va mustahkam materiallarni ishlab chiqish, sinash va tajriba-sanoat darajasida joriy etish bo’yicha mega-loyihalarni amalga oshirishdan iborat.

O’zR FA Materialshunoslik institutining noyob ilmiy obyekti “Katta quyosh qurilmasi” bazasida, shu qatorda, chet ellik ilmiy markazlarni ham jalb qilgan holda bir qator innovatsion va amaliy izlanishlar amalga oshiriladi. Masalan, Qurilmada mujassamlashgan Quyosh nurlari yordamida qizitish hisobiga fotokatalitik usul bilan bevosita suvdan vodorod olish jarayonlari bo’yicha izlanishlar olib borilgan. Mujassamlashgan Quyosh nurlaridan foydalanish, yuqori qiymatga ega energiya sarfisiz, suvni parchalashga kerak bo’ladigan yuqori haroratlarga (1500 oC dan yuqori) erishish imkonini beradi.

Vodorodni Quyosh nurlari yordamida ishlab chiqarish yorug’lik yutuvchilar va katalizatorlarning turli xil birikmalaridan foydalanish tufayli ancha samarali jarayon bo’lishi mumkin, kimyoviy birikmaning samaradorligini ikki baravar oshirgan holda nurni yutib va suv molekulalarini parchalab vodorod yoqilg’isini ishlab chiqarishni ta’minlaydi.

Hozirgi vaqtda, mujassamlashgan Quyosh nuri hisobiga vodorod ishlab chiqarish bo’yicha mega-loyihani amalga oshirish masalasi Darmshtadt universiteti (Germaniya), Kyushi universiteti (Yaponiya), Koreya sanoat texnologiyalari instituti (KITECH), RFA Silikatlar kimyosi institutlari (Rossiya) bilan muhokama qilinmoqda.

Matbuot anjumanida loyiha doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ilmiy izlanishlar to’g’risida batafsil ma’lumot berildi.